



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



Yashil

Barqarorlik uchun innovatsiyalar:

Yashil iqtisodiyodga o'tish davrida
biznes va tadbirkorlik bo'yicha



**2025 - yil
1-30-aprel**



**RESEARCH
AND GRANTS UPDATES**

**NAVBATDAN
TASHQARI SON**



<https://gsbe-research.uz/conferences-ups-uz>



conference@gsbe.uz



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 112 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavit Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavit Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Dunyo sug'urta bozorida yashil xizmatlarning taraqqiyot strategiyalari.....	7
Alimov Baxodir Batirovich	
Yashil iqtisodiyot sharoitida amaliy va nazariy treninglar orqali xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish.....	14
Marupov Kabil Komilovich	
O'zbekiston iqtisodiyotini yashillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning joriy holati tahlili.....	20
Nurmetova Muyassar	
Econometric assessment of the impact of investments on the economic system of Surkhandarya region	29
Nurbek Khatamov	
Debt versus tax financing in infrastructure: impact on employment	37
Raxmatov Firdavs Feruz o'g'li, Kengesbaeva Gulfayruz Azamatovna	
Digital infrastructure and green energy in export diversification: evidence from post-soviet countries.....	47
Sadriddinov Ulugbek Jaloliddin ugli	
Jahon savdo tashkiloti doirasida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari: ko'p tomonlama savdo kelishuvlari tahlili	55
Toshpulatova Malika Ulug'bek qizi	
Развитие финтеха в узбекистане: современное состояние и международный контекст	63
Адилова Сакинахон	
Yashil iqtisodiyotni innovasion rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash	68
Rasulova Dilfuza, Kaytarov Voxid	
Gibrid avtomobillar importida to'lovlar undirish amaliyotini takomillashtirish.....	80
Kaljanov Baxadir Dauletbaevich	
Стратегии корпоративного управления и привлечения иностранных инвестиций в условиях устойчивой экономики	88
Фарход Каракулов	
The impact of WTO accession on Uzbekistan's trade policy: in the case of Kazakhstan	102
Azimjonov Muhammadsoli Muhammadolim o'g'li	



GIBRID AVTOMOBILLAR IMPORTIDA TO'LOVLAR UNDIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Kaljanov Baxadir Dauletbaevich

Toshkent shahar bojxona boshqarmasi

Markazlashtirilgan "MED" bojxona posti katta inspektori

e-mail: tolqinday2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasiga import qilingan gibril va elektromobillarni oxirgi yillarda hisoblangan import bojxona boji to'g'risida ma'lumotlar va ulardan berilgan imtiyozlarning bojxona to'lovlari turlari kesimida tahlili, import bojxona boji, utilizatsiya yig'irlari undirilayotgan gibril avtomobillar va elektromobil sanaladigan ikki xil turdagi avtoransportlarga nisbatan qo'llaniladigan import bojxona bojini va utilizatsiya yig'irlarini optimallashtirish, ushbu yo'nalishdagi amaliyotda mavjud muammolar va ularni yechish bo'yicha amaliy takliflar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada bojxona tizimida gibril va elektromobillarning qanday dvigatellarda harakatlanishi, ularning qaysi TIF TN kodlarida tasniflanishi holatlari batafsil yoritilgan bo'lib, mavzuga asoslangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: import, import bojxona boji, imtiyozlar, TIF TN kod, gibril, izchil-gibril, elektromobil.

Abstract: This article analyzes the data on import customs duties calculated in recent years for hybrid and electric vehicles imported into the Republic of Uzbekistan, as well as the privileges granted in the context of various types of customs payments. The study examines the optimization of import customs duties and recycling fees applied to two different types of vehicles considered as hybrid cars and electric vehicles, analyzes the existing problems in this area of practice, and provides practical proposals for their solution. In addition, the article thoroughly describes which engines hybrid and electric vehicles operate on within the customs system and under which HS codes they are classified, and offers scientific recommendations and practical suggestions based on the topic.

Key words: import, import customs duty, privileges, HS code, hybrid, plug-in hybrid, electric vehicle.

Аннотация: В данной статье проанализированы данные о таможенных пошлинах на гибридные и электромобили, импортируемые в Республику Узбекистан за последние годы, а также льготы, предоставленные по видам таможенных платежей. Рассмотрены вопросы оптимизации таможенных пошлин и утилизационных сборов, применяемых к двум различным типам транспортных средств, относящимся к гибридным автомобилям и электромобилем, выявлены существующие проблемы в данной сфере практики и предложены практические пути их решения. Кроме того, в статье подробно освещено, какими двигателями оснащены гибридные и электромобили в таможенной системе и по каким кодам ТН ВЭД они классифицируются, даны научные рекомендации и практические предложения по теме.

Ключевые слова: импорт, таможенная пошлина на импорт, льготы, код ТН ВЭД, гибрид, последовательный гибрид, электромобиль.

KIRISH

Jahon avtomobil sanoatida ekologik barqarorlikni ta'minlash va uglerod chiqindilarini kamaytirish borasidagi global talablar ortib borayotgani sharoitida gibril avtomobillarga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshmoqda. Xususan, energiya resurslaridan samarali foydalanish, transport vositalari tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalarning kamaytirilishi va yoqilg'i tejamkorligini oshirish maqsadida rivojlangan davlatlar qatorida O'zbekiston ham ushbu turdagi avtomobillar importini rag'batlantirishni maqsad qilgan.

Shu bilan birga, gibril avtomobillar importida to'lovlar undirish amaliyoti va uning moliyaviy-me'yoriy mexanizmlari mavjud muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, bojxona to'lovlari, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i kabi to'lovlarda aniq mexanizmlar va imtiyozlar tizimining yetarli darajada takomillashmaganligi import jarayonida iqtisodiy samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, gibril avtomobillar importi uchun to'lovlar undirish amaliyotini takomillashtirish nafaqat davlat budjeti tushumlarini optimallashtiradi, balki aholi orasida ekologik toza transport vositalaridan foydalanish motivatsiyasini oshiradi. Mazkur maqolada gibril avtomobillar importida to'lovlar undirishning amaldagi tartiblari o'rganiladi,



mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda milliy iqtisodiyot manfaatlarini hisobga olgan holda ushbu jarayonni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy dunyoda transport sohasidagi ekologik transformatsiya jarayonlari nafaqat texnologik rivojlanishni, balki huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tizimining qayta ko'rib chiqilishini ham taqozo qilmoqda. Xususan, avtomobil importi bilan bog'liq bojxona siyosatining ekologik maqsadlarga moslashuvi masalasi jahon tadqiqotchilari diqqat markazida turibdi.

Xalqaro tadqiqotlarda (Schmidt et al., 2020; Li et al., 2021) ta'kidlanishicha, "yashil" transport vositalarini import qilishda tarif va notarif choralarning manzilli tarzda farqlantirilishi, bozorning izchil va samarali rivojlanishi uchun asosiy sharoit hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida avtomobillarining klassifikatsiyasida texnikaviy xususiyatlar (dvigatelning turi, batareya quvvati, zaryadlanish imkoniyatlari va bevosita aynan g'ildiraklarning harakatiga ta'siri) asosiy mezon sifatida qabul qilingan bo'lib, bojxona tariflari ana shu texnik farqlarga mutanosib tarzda belgilanadi (European Commission, 2023).

Qo'shma Shtatlar tajribasida ham (US EPA, 2022)¹ izchil-gibrid (EREV) va tashqi zaryadlanuvchi gibrid (PHEV) avtomobillar o'rtasidagi texnik va funksional farqlar rasman e'tirof etilgan. Ushbu farqlar asosida klassifikatsiya qilingan holda, turli shtatlarda utilizatsiya yig'implari, soliq imtiyozlari va subsidiyalar turlicha tartibda amalga oshiriladi. Bunda ichki yonuv dvigateli g'ildiraklarni harakatga keltira oladimi-yo'qmi, degan mezon hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, transport vositalarining klassifikatsiyasi nafaqat yuridik, balki muhandislik va ekologik yondashuvlar uyg'unligida belgilanadi.

Xitoy tajribasi bundan ham aniqroq me'yoriy asoslarga ega. Zhang & Wu (2022)² tomonidan o'rganilgan holatlarga ko'ra, Xitoyda "New Energy Vehicle" (NEV) tushunchasi aniq texnik talablar bilan belgilangan bo'lib, elektrodvigatelga ega har qanday vosita "yashil" deb baholanmaydi. Aksincha, energiya manbasi, harakat tizimlari va IYoDning ishtiroki qat'iy reglamentlashtiriladi. Hatto, izchil-gibridlar uchun alohida bojxona kodlari joriy qilingan. Bu orqali nafaqat ekologik maqsadlar, balki shaffof va adolatli bozor muhiti ta'minlanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari kontekstida esa bu sohadagi tadqiqotlar nisbatan cheklangan. Ammo so'nggi yillarda Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda olib borilgan transport siyosatlarini tahlil qilgan ba'zi ishlar (Iskakov, 2023; Dzhuraev, 2022) milliy bojxona tizimlari va xalqaro standartlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni ochib berdi. Jumladan, turli turdagi gibrid va elektromobillarning bir xil TIF TN kod ostida tasniflanishi bozor ishtirokchilari orasida tushunmovchiliklar, huquqiy nomutanosibliklar va ba'zan noto'g'ri to'lovlarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda bu masala borasidagi ilmiy manbalar soni oz bo'lsa-da, bir qator amaliyotga yo'naltirilgan maqolalar va tahlillar mavjud. Xususan, Davlat bojxona qo'mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida tayyorlangan hisobotlarda (Bojxona axborotnomasi, 2023) gibrid va elektromobillar importidagi o'sish dinamikasi, turlari va ularga nisbatan bojxona to'lovlarning tahlili keltirilgan. Ammo ushbu manbalarda EREV turi alohida tahlil qilinmagan, ular aksar hollarda EV toifasiga kiritilib, tariflar differensiatsiyasiz holda qo'llanilgan.

Shu jihatdan qaralganda, EREV avtomobillari uchun alohida bojxona klassifikatsiyasini ishlab chiqish va uni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalasi mamlakatimiz uchun nafaqat iqtisodiy, balki strategik ekologik ahamiyatga ham ega. Bu boradagi ilmiy tahlillar hozircha mavjud emasligi maqolaning yangiligi va ilmiy qiymatini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida gibrid va elektromobillar importini bojxona vositasida tartibga solish mexanizmlarini tahlil qilish uchun murakkab tizimli yondashuv asosidagi omillararo bog'liqlik tahlili qo'llanildi. Asosiy e'tibor bojxona tariflari, utilizatsiya yig'implari, tarif va notarif choralarning ta'sir doirasini aniqlash hamda texnik xarakteristikalarga qarab transport vositalarini TIF TN kodlariga to'g'ri va aniq tasniflash masalalariga qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Qonunchilik tahlili: 2017–2024 yillardagi bojxona va soliqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, TIF TN kodlarining o'zgarishlari va ularning ta'riflariga nisbatan huquqiy asoslar tahlil qilindi.

Komparativ tahlil: EREV, EV va PHEV turdagi avtomobillar tasnifi bo'yicha Yevropa Ittifoqi, Xitoy va AQSh amaliyoti o'rganilib, O'zbekistondagi holat bilan taqqoslandi.

Ssenariyli modellash: Differensial tarif stavkalari va kodlash tizimlari joriy etilgan taqdirda, davlat byudjetiga va bozor strukturasi ta'sirini baholash maqsadida muqobil ssenariylar ishlab chiqildi.

¹ <https://www.epa.gov/>

² <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3571662>



Ekspert so'rovi: Avtomobil importchilari, bojxona mutaxassislari va logistika kompaniyalari vakillari o'rtasida so'rovnomaga va intervyular tashkil etildi.

Modellashtirish

Ekonometrika asosida dastlab, tanlangan ko'rsatkichlarning bir biriga korrelyatsiyasini aniqlab, ekonometrik model asosida 2025-2026-yillarda EREV avtomobillarining importi sonini prognozlash lozim bo'ladi. Model tanlashda qo'yidagi omillar inobatga olindi:

-Bozorda talab cheklangan (hamma odam bir vaqtda mashina olmaydi),

-Davlat siyosati: utilizatsiya yig'imi oshishi (2025 yil 01 maydan utilizatsiya yig'imining baland stavkasi, BHMning 120 barobari miqdorida joriy qilingan), shuningdek, 2024 yil noyabr oyidan boshlab notarif choralarning ko'chaytirilishi,

-Logistika, sotuvchilar, avtosalonlar sonining oshishi hisobga olindi.

Bunday hollarda, EREV avtomobillarining importi sonini prognozlash uchun Logistic (S-shaklli) modelidan foydalaniladi.

$$y = \frac{L}{1+e^{-k(t-t_0)}} + \varepsilon$$

ε

Bu yerda:

y: import qilingan EREV soni (oylik) prognozi,

t_0 : o'sish markazi (tez o'sishning o'rta qismi),

k: o'sish tezligi,


ε : ko'zatlilmagan omillar(xatolik)

TAHLIL VA NATIJALAR


Zamonaviy global avtomobil bozori bugungi kunda ekologik toza transport yechimlariga faol o'tish bilan bog'liq inqilobiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Avtomobillar importi ortib borishi bilan gibridd va elektromobillarning ulushi proporsional tarzda oshib, davlat va tadqiqotchilar o'rtasida import to'lovlari hamda notarif choralari orqali bozorni nazorat qilish yuzasidan muhokamalar ham ko'payib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, avtomobillar importida to'lovlarning ulushi 2017-yilda 2,43 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 4,34 %ni tashkil etgan.

Albatta, bunga quyidagi omillar – importda to'lanadigan to'lovlari turlarining optimallasuvi (aksiz solig'i 2020-yilda bekor qilingan, utilizatsiya yig'imi joriy qilingan, yangi avtomobillarga nisbatan tarif stavkalari pasaytirilgan), shuningdek iste'molchilarning ekologik toza va energiya tejankor avtomobillarga egalik qilishga bo'lgan xohishlarining o'zgarishi sabab bo'lmoqda.

Yalpi avtomobillardan foydalanish poygasida ekologik toza transport vositalari asosiy drayverlarga aylanmoqda. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan va gibridd hamda elektromobillarga talab ortib borayotgan davlat sifatida O'zbekiston ham bu jarayonda faol ishtirok etayotganini ko'rishimiz mumkin. 2017–2024-yillardagi ma'lumotlarga ko'ra, yoqilg'ida harakatlanadigan avtomobillarga nisbatan ekologik toza avtomobillar importi soni sezilarli darajada o'sgan. 2024-yilda yoqilg'ida harakatlanuvchi avtomobillar importi oldingi yilga nisbatan 57,4 %ga kamaygan (1, 2-rasm)³.



1-rasm. 2017-2024-yillarda jami avtomobillarning importi dinamikasi



2-rasm. 2017-2024-yillarda gibridd va elektromobillarning importi dinamikasi


3 <https://stat.uz/uz/> Ba <https://www.imv.uz/oz/activity/vazirlik-tassarufidagi-tashkilotlar/bojxona-qomitasi> <https://www.imv.uz/oz/activity/vazirlik-tassarufidagi-tashkilotlar/bojxona-qomitasi>



Shuni ham ta'kidlash joizki, davlat tomonidan "yashil iqtisodiyot" tamoyili asosida bojxona va soliq imtiyozlari taqdim etilganligi natijasida gibrid va elektromobillar importi o'sishi ayniqsa so'nggi 3 yil ichida statistik jihatdan sezilarli bo'lgan:

- (OIL) – yoqilg'ida harakatlanadigan avtomobillar importi 1,02 barobarga oshgan
- (EV) – elektromobillar import hajmi 3,3 barobarga oshgan
- (HEV) – tashqi zaryadsiz gibridlar 4,5 marta oshgan
- (PHEV) – tashqi zaryadlash qobiliyatiga ega gibridlar 100,1 marta oshgan
- (EREV) – izchil gibridlar 32,3 marta oshgan.

Ekologik transportlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan manzilli choralar amalga oshirilib, avtomobillar importida to'lanadigan to'lov turlari optimallashtirilgan. Masalan, 2020-yilda aksiz solig'i avtomobillar importida bekor qilingan bo'lsa, shu yili utilizatsiya yig'imi joriy qilingan. Shuningdek, amaliyotda elektromobillarga nisbatan bojxona boji stavkalari 0 % ekanligini ta'kidlash joiz. Joriy qilingan utilizatsiya yig'imi bekor qilingan aksiz solig'iga nisbatan o'zining samarasini namoyon qilgan (3-rasm).



3-rasm. 2017-2024-yillarda import avtomobillarining aksiz solig'i va utilizatsiya yig'imi undirilish dinamikasi (mlrd.so'mda)⁴

OICA (International Organization of Motor Vehicle Manufacturers)⁵ ma'lumotlari asosida O'zbekiston aynan yengil avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha 2024 yil dunyoda 17-o'rinni egallagan. O'z o'rnida ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish yuzasidan tarif va notarif choralar qo'llanilgan. Tashqi savdoni hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa turlarini tarif va notarif tartibga solish uyg'unlashgan tizim TIF TN asosida amalga oshiriladi (4-rasm).

№	Давлатлар	2022	2023	2024	Ўзгариши (%)	Жаҳондаги улуши (2024)
1	Хитой	23,836	24,146	~25,100 (+4%)	+1.3%	~32%
2	Япония	6,599	7,835	~8,200 (+4.6%)	+18.7%	~10.5%
3	Германия	3,677	4,109	~4,300 (+4.6%)	+11.7%	~5.5%
4	Ҳиндистон	4,399	4,513	~5,000 (+10.8%)	+2.6%	~6%
5	Корея	3,757	3,935	~4,000 (+1.6%)	+4.7%	~5.3%
6	АҚШ	2,247	2,642	~2,800 (+6%)	+17.6%	~3.5%
17	Ўзбекистан	295	385	~420 (+9%)	+30.5%	0.5%

4-rasm. OICA ma'lumotlari asosida yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi davlatlar reytingi(2024-yil)⁶

⁴ <https://old.customs.uz/uz>

⁵ <https://www.oica.net/category/about-us/members/uzbekistan/>

⁶ <https://www.oica.net/category/about-us/members/uzbekistan/>




Tashqi zaryadlash qobiliyatiga ega gibridlar (PHEV) TIF TNning 870360 kodida, TIF TNning 870380 kodida nafaqat elektrodvigatelga ega elektromobillar (EV), balki, generator sifatida ishlaydigan, g'ildirakni harakatga keltirishda ishtirok etmaydigan ichki yonuv dvigateliga ega elektromobillar (EREV) ham tasniflanadi.⁷ Natijada, EREV avtomobillarni rasmiylashtirishda EV avtomobillarga berilgan imtiyozlardan to'liq foydalanilmoqda.

Amalda gibridlar (HEV va PHEV) TIF TNning 870360 kodida 15 %, EREV va EV-larga 0% bojxona boji belgilangan.⁸ Agarda EREV avtomobillarga nisbatan yangi TIF TN kodi joriy qilinib, 10 % bojxona boji stavkasi belgilanganida 2023-2024 yillarda mobaynida 129,1 mlrd so'm faqatgina bojxona bojidan o'ndirilgan bo'lar edi.

Ushbu yo'nalishda dunyo tajribasini o'rganilganida, iqtisodiyoti yetakchi davlatlar sanalmish Xitoy, Yevropa ittifoqi va AQShning ko'pchilik shtatlarida EREV avtomobillari, ichki yonuv dvigateli mavjudligi hisobiga PHEV sifatida qaralib, TIF TNning 870360 kodida tasniflanayotganligi ma'lum bo'ldi.

Davlat tomonidan bu boradagi taqdim etilayotgan imtiyozlarni takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. Sababi TIF TN kodi 870380 bo'lgan elektromobillar, ularning texnik xususiyatlari nuqtai nazaridan hilma-xilligi kuzatilmoqda (5-rasm).



5-rasm. Gibrid va elektromobillarning texnik jihatleri va TIF TN kodida ifodalanishi⁹

Shuni inobatga olish kerakki, ham elektr tokidan zaryad oluvchi, ham yoqilg'idan zaryadlanish qobiliyatiga ega gibridlar (PHEV) va izchil gibridlar (EREV), garchi ikki xil energiyadan foydalansa ham, ichki yonuv dvigatelining g'ildiraklarni to'g'ridan-to'g'ri harakatga keltira olishi (TIF TN kodi 870360 va 870370) yoki harakatga keltira olmasligi (TIF TN kodi 870380) xususiyati jihatidan o'zaro farqlanadi. Shu bois, ularning TIF TN kodlari o'zgaradi va bu asosida bojxona to'lovlarini to'lashda sezilarli farqlar mavjud bo'lib, differensial import bojlari belgilangan.

Aslida takomillashtirilgan holatda qanday bo'lishi kerak? TIF TN kodi 870380 bo'lgan avtomobillar iste'molchilar o'ylaganidek to'liq elektr dvigatelida harakatlanmaydi. Ushbu kodda tasniflanadigan EREV turdagi avtomobillar generator sifatida ishlatiladigan ichki yonuv dvigateliga ega.

Shuning uchun EREV va EV turdagi avtomobillarga alohida yangi TIF TN kodi joriy qilinishi yoki bitta kodda qolgan taqdirda ham avtomobilning nomi asosida stavkalar belgilanishi kerak bo'ladi. Agar bu turdagi amaliyot joriy etilib takomillashtirilsa, importda to'lovlarning oshishiga, iste'molchilar tomonidan adolatli to'lov qilinishiga – ya'ni faqat elektrodvigatelli EV avtomobillarga nisbatan kamroq, ham ichki yonuv dvigateli, ham elektrodvigatelga ega EREV avtomobillarga esa ko'proq to'lov to'lanishiga, shuningdek, shaffof "yashil" transportlarni qo'llab-quvvatlashga erishiladi.

Amaldagi qonunchilik asosida bojxona tartibga solish tizimi ushbu turdagi avtomobillar (EREV va EV) uchun tarif stavkalarini nodifferensial belgilagan bo'lib, bu esa import siyosatida buzilishlarni keltirib chiqaradi va "yashil" transportning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

⁷ <https://www.lex.uz/docs/6330249>

⁸ <https://lex.uz/docs/3802366>

⁹ Муаллиф чизмаси



Ko'rsatkichlarning korrelyasini mazkur model asosida korrelyatsiyasi o'rganilganida, EREV avtomobillariga nisbatan bojxona boji stavkasi va utilizatsiya yig'imi miqdorlarining o'zgarishi tasiri deyarli yo'q ekanligi sababli, YalM va dollar kursi o'zgarishi asosiy ko'rsatkich sifatida qabul qilindi (1-jadval).

1-jadval. 2022-2024-yillarda model uchun zarur ko'rsatkichlar

Muddat	y-import soni	x1-YalM (\$)	x2-Dollar kursi
2022.01	3	9626,36	10817,25
2022.02	5	9639,04	10856,41
2022.03	10	9651,72	11571,99
2022.04	10	9664,4	11259,37
2022.05	10	9677,08	11088,2
2022.06	18	9689,76	10950,03
2022.07	32	9702,44	10925,55
2022.08	23	9715,12	10934,97
2022.09	44	9727,8	10979,29
2022.10	21	9740,48	11148,99
2022.11	20	9770,13	11208,18
2022.12	19	9799,78	11286,18
2023.01	52	9829,43	11285
2023.02	58	9859,08	11342
2023.03	59	9888,73	11417,98
2023.04	111	9918,38	11416,17
2023.05	65	9948,03	11488,14
2023.06	188	9977,68	11477
2023.07	244	10007,33	11600,11
2023.08	277	10032,77	12066,19
2023.09	404	10058,21	12168,04
2023.10	305	10083,65	12231,01
2023.11	379	10109,09	12280
2023.12	675	10134,53	12371,7
2024.01	610	10159,97	12420,15
2024.02	525	10194,3	12480,14
2024.03	493	10228,63	12561,87
2024.04	295	10262,96	12697
2024.05	485	10297,29	12694,87
2024.06	401	10331,62	12643,91
2024.07	473	10365,95	12601,08
2024.08	738	10400,28	12640,93
2024.09	806	10417,27	12724,84
2024.10	952	10434,26	12803,06
2024.11	717	10451,25	12844
2024.12	732	10353,58	12875,06

Jadvaldan ko'rinib to'ribdiki, EREV avtomobillarining importi sonini tez o'sish markazi 27-oyda (t_0) to'ri kelmoqda, o'sish tezligini 0,3 koeffitsentda olsak maqsadga muvofiq. Shuningdek bozorning to'yinish darajasini taxmini 1500 dona avtomobil tarzda olsak, EREV avtomobillarining importi soni optimal miqdorga to'g'ri keladi.



Metodologik yondashuv asosida olingan natijalar bir nechta muhim xulosalarni ko'rsatdi:


TIF TN kodlari va texnik tavsiflar o'rtasidagi nomuvofiqlik. EREV avtomobillari amalda EV sifatida tasniflanmoqda (kod 870380), ammo texnik jihatdan ular PHEV avtomobillariga yaqin turadi, chunki ichki yonuv dvigateli g'ildiraklarni harakatga keltirish jarayonida generator orqali ishtirok etadi. Bu esa, EV turiga berilgan imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish holatlariga olib kelmoqda.

Bojxona bojlari va utilizatsiya yig'imlarining nodifferensialligi. Hozirda EV va EREV avtomobillariga nisbatan yagona stavkalar qo'llanilayotgani, ularning texnik imkoniyatlaridagi farqlarni inkor etadi va bozordagi adolatli raqobatga to'sqinlik qiladi.

Import dinamikasining davlat siyosatlari bilan uyg'unligi. 2020 yildan boshlab aksiz solig'ining bekor qilinishi va utilizatsiya yig'imining joriy etilishi, hukumat tomonidan "yashil iqtisodiyot"ni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan siyosatlarning amaliy natijasi sifatida gibril va elektromobillar importida sezilarli o'sishga olib kelgan.

Xalqaro tajribadan farqli yondashuvlar. Xitoy, Yevropa Ittifoqi va AQShda EREV avtomobillari texnik xususiyatlari asosida PHEV sifatida qayta tasniflanib, ularga turlicha tariflar joriy etilgan. O'zbekistonda esa EREV va EV bir kod doirasida qolmoqda.

Logistic (S-shaklli) modelidan foydalanish natijalari (6-rasm).



6-rasm. Logistic (S-shaklli) modelidan foydalanish natijalari

Ko'k chiziq — aniq ma'lumotlar (2022-2024 yildagi importlar),

Sariq chiziq — prognoz qilingan importi (2025-2026 yillar),

Ko'rinib turibdiki, model 2025-yildan keyin ham o'sishni bashorat qilmoqda, biroq bu o'sish shiddatli emas — barqaror, sekin o'sish trendida. Chiziqli regressiya yoki bolg'i darajali modellardan (polynomial regression) foydalanilmadi, chunki ular faqat o'sish suratini ifoda etadi. Ushbu holatda reallikka eng yaqin Logistic (S-shaklli) modeli optimal hisoblanadi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida ushbu turdagi avtomobillarning tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) kodlari orqali EV, EREV va PHEV avtomobillari uchun tegishli 870380, 870360 va boshqa kodlarning belgilanishi, ularga nisbatan qo'llaniladigan bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va utilizatsiya yig'imlari o'rtasidagi farqlar tahlil etildi. Ushbu tahlil O'zbekistonda mavjud tarif siyosatining ekologik va iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan to'liq uyg'un emasligini ko'rsatmoqda.

Olib borilgan tahlillar natijasida TIF TN kodlash tizimini takomillashtirish zarurligi aniqlanadi. EREV turdagi transport vositalari uchun alohida kod 870381 joriy etilishi yoki mavjud kodlarda shunchaki qo'shimcha "A" yoki "B" tarzda texnik xususiyat asosida farqlash kiritilishi kerak. Bu klassifikatsiya faqat tashqi ko'rinish emas, balki harakatlanish mexanizmining texnik modeliga asoslanishi lozim.

Bojxona va utilizatsiya yig'imlarini differensiallash nuqtai nazaridan EV avtomobillari uchun pasaytirilgan stavka saqlanishi, EREV uchun yuqori yoki o'rtacha stavka joriy etilishi, PHEV uchun esa mavjud stavkalarni o'zgartirishsiz qoldirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali yo'qotilishi mumkin bo'lgan to'lovlar xavfi kamaytiriladi.



Shuningdek, huquqiy-me'yoriy bazaga texnik asoslangan mezonlar kiritish, ya'ni avtomobilning energetik manbalari va harakat mexanizmlari asosida ularni tariflash va kodlash bo'yicha aniq ko'rsatmalar hamda standartlar ishlab chiqish lozim.

Xalqaro tajriba bilan uyg'unlashgan normativ baza yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqi va Xitoy standartlariga uyg'un tasnif tizimi joriy etilib, u orqali importchilar, rasmiylashtiruvchi organlar va iste'molchilar uchun aniq va shaffof sharoit yaratilishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мировой автопром: цифры, история, рейтинги. <https://dknews.kz/ru/dk-avto/314126-mirovoy-avtoprom-cifry-istoriya-reytingi>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.10.2019 йилдаги "2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида" ПҚ-4477-сон қарори, <https://lex.uz/docs/4539502>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.10.2019 йилдаги "2019 — 2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида" ПҚ-4477-сон қарори, <https://lex.uz/docs/4539502>
4. Ўзбекистон Республикасининг 05.04.2002 йилдаги "Чиқиндилар тўғрисида"ги 362-II-сон Қонуни,
5. <https://lex.uz/docs/42423?ONDATE=01.01.2024>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.12.2022 йилдаги "Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият товар номенклатурасининг 2022 йилги тахририни жорий этиш тўғрисида"ги ПҚ-460-сон қарори, <https://lex.uz/ru/docs/6330249>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29.06.2018 йилдаги "Ўзбекистон Республикасининг ташқи иқтисодий фаолиятини янада тартибга солиш ҳамда божхона-тариф жиҳатдан тартибга солиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3818-сон Қарори, <https://lex.uz/docs/3802363>
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 02.06.2020 йилдаги "Айрим турдаги товарлар учун утилизация йиғимини жорий этиш тўғрисида" 347-сон қарори, <https://lex.uz/docs/4844263>
9. Европейская экономическая комиссия Комитет по внутреннему транспорту Всемирный форум для согласования правил в области транспортных средств. Сводная резолюция о конструкции транспортных средств (СР.3) <https://unece.org/DAM/trans/main/wp29/wp29resolutions/ECE-TRANS-WP.29-78r6r.pdf>
10. Wu, C., Zhang, K., Zhou, X. et al. (2022). Digital Transformation, Choice of Competitive Strategy, and High-Quality Development of Firms: From Evidence of Machine Learning and Text Analysis. Business Management Journal, 44, 5-22. <https://doi.org/10.19616/j.cnki.bmj.2022.04.001> <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=3571662>
11. Қўшма Штатлар тажрибасида (US EPA, 2022) <https://www.epa.gov/>
12. OICA маълумотлари асосида Ўзбекистон ҳисоботи. <https://www.oica.net/category/about-us/members/uzbekistan/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



